



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Israilova Aygul Bayadilovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Psixologiya ixtisosligi 1-bosqich magistranti

Aykoisrailova@gmail.com, +998909104364

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil etiladi. Inklyuziv ta'limning mazmuni, tamoyillari va uning samarali tashkil etilishi uchun zarur bo'lgan pedagogik yondashuvlar ochib beriladi. Shuningdek, alohida ehtiyojga ega o'quvchilar bilan ishlashda psixologik qo'llab-quvvatlashning ahamiyati, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikning ta'lim sifatiga ta'siri yoritiladi. Maqolada inklyuziv ta'limning xalqaro tajribasi va milliy ta'lim tizimidagi joriy holati tahlil qilinib, taklif va tavsiyalar beriladi.

Abstract: This article analyzes the pedagogical and psychological features of the inclusive education process in general education schools. Content, principles of inclusive education and pedagogical approaches necessary for its effective organization are revealed. Also, the importance of psychological support in working with students with special needs, the impact of cooperation between teachers and students on the quality of education will be highlighted. The article analyzes the international experience of inclusive education and the current state of the national education system, offers suggestions and recommendations.

Аннотация: В статье анализируются педагогические и психологические особенности процесса инклюзивного образования в общеобразовательных школах. Раскрыты содержание, принципы инклюзивного образования и педагогические подходы, необходимые для его эффективной организации. Также будет освещена важность психологической поддержки в работе с учащимися с особыми потребностями, влияние сотрудничества преподавателей и учащихся на качество образования. В статье анализируется международный опыт инклюзивного образования и современное состояние национальной системы образования, предлагаются предложения и рекомендации.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, inklyuziv ta'lim, Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, U.Janson.

Key words: Education, inclusive education, Laboratory of Inclusive Education, Law of the Republic of Uzbekistan "On Education", U. Janson.

Ключевые слова: Образование, инклюзивное образование, Лаборатория инклюзивного образования, Закон Республики Узбекистан «Об образовании», У. Янсон.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



O'zbekistonda alohida ta'limga muhtoj bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan hujjatlarni tasdiqladi. Jumladan, umumta'lim maktablarida alohida ta'limga muhtoj bo'lgan bolalar uchun boshlang'ich tayanch korreksion sinflarni ochish tartiblari belgilandi. Hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi qaroriga asosan "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi" faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha Hukumat qarorini qabul qilish belgilangan. Shuningdek, yuqorida ta'kidlanganidek, Prezidentimizning "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi qoshida uning belgilangan shtat birliklari doirasida "Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi" tashkil etilishi vazifa qilib belgilangan. Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi o'z navbatida bir qancha asosiy vazifalari bajaradi: umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim uchun shart-sharoitlar yaratish, inklyuziv ta'lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini nazorat qilish; inklyuziv ta'limning metodik ta'minotini (dasturlar, rahbar, pedagog va mutaxassislariga metodik tavsiyalar va boshqalarni) ishlab chiqish hamda takomillashtirib borish; inklyuziv ta'limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va ijtimoiy rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish; inklyuziv sharoitlarda ta'lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash; inklyuziv ta'lim bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borish, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va amaliyotga joriyn qilish; inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalari, ularda ta'lim olayotgan o'quvchilar to'g'risida ma'lumotlar bazasini shakllantirish va uni doimiy ravishda yangilab borish; inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy konferensiyalar va seminarlar tashkil etish va o'tkazish va boshqalar "Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi"ning asosiy vazifalari hisoblanadi [1].

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar bolalarning ta'lim va tarbiyasiga bo'lgan qarashlarning o'zgarishiga, bu esa mamlakatimiz ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Umumiy va maxsus ta'limning integratsion jarayonlarida turli xil tendensiyalar mavjud bo'lib, buning natijasida nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalash muammosi asosiylardan hisoblanadi. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga erta tashxis qo'yish va ularga yordam ko'rsatish davlat tizimi ilmiy o'rganish va amaliyotga joriy etish uchun dolzarb bo'lib bormoqda. Shunga ko'ra, turli yosh guruhlari va toifalaridagi bolalarga, ularning yaqin atrofiga, shuningdek, ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilariga psixologik, tibbiy va pedagogik yordam va qo'llab-quvvatlash zarur. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41- moddasida "Har kim bilim olish



huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir” deb belgilab qo'yilganligi ham ta'lim sohasiga bo'lgan ulkan e'tibordir. Undan tashqari O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunga alohida modda kiritilishi va ushbu modda inklyuziv ta'limga bag'ishlanganligi diqqatga sazovordir. 2021/2022 o'quv yilidan respublikamiz miqyosida umumta'lim muassasalarida tajriba sinov tariqasida inklyuziv ta'lim joriy etildi. Bunday birinchi inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflariga o'quvchilar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari uchun belgilangan yosh me'yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi [2]. Inklyuziv ta'lim subyektlarini psixologikpedagogik qo'llab-quvvatlash alohida ta'lim ehtiyojli o'quvchilari kamsitilmasdan sifatli ta'lim olish, rivojlanish buzilishlarini tuzatish va ijtimoiy moslashish, maxsus pedagogik yondashuvlar va usullar asosida erta tuzatish yordami ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish nazarda tutiladi.

Hozirgi vaqtda inklyuziv ta'lim subyektlarini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash mazmuni o'rganishning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu jarayon alohida ta'lim ehtiyojli bolaning ijtimoiy muhitga samarali integratsiyalashuvini ta'minlashga, uning o'zini o'zi belgilashiga, o'zini o'zi anglashiga, o'zini o'zi tasdiqlashiga hissa qo'shishga qaratilgan barcha ta'lim subyektlarining faoliyati bilan o'zaro bog'liqdir. Psixologik va pedagogik yordam muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashish va har qanday ta'lim tashkiloti talabalarining shaxsiy hayoti va kasbiy o'zini o'zi belgilashi bilan bog'liq turli vaziyatlarda maqbul yechimlarni tanlashning zaruriy shartidir [3]. Bugungi kunda jahon mamlakatlarida nogironligi bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni tarbiyalash, ularning jamiyatda o'ziga munosib o'rinni egallashlariga ko'maklashish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. BMTning “Nogironlar huquqlari to'g'risida”gi Konvensiyasi, “Ta'lim hamma uchun” reja-dasturi to'g'risidagi Dakar deklaratsiyasi va boshqa xalqaro miqyosda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning asosiy maqsadi nogiron bolalarni himoyalashga qaratilgan bo'lib, ta'lim jarayoniga inklyuziv yondashuvni samarali joriy etish ham shular jumlasidandir. Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish qadriyatli yondashuv asosida umumiy o'qitish tizimi bilan inklyuziv ta'limni integratsiyalash, o'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda [4]. Inklyuziv ta'limni o'rganish pedagogika fanida yangi, eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Muammoga doir tadqiqot ishlarini o'rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosida ma'lum bo'ldiki, imkoniyati cheklangan yoshlarning tarbiyaviy muhiti hamma vaqt yaxshi, mo'tadil bo'lishi, hamisha alohida e'tiborda tutilishi, kattalarning nazaridan chetda qolmasligi lozim.

P.V.Romanov va V.V.Yakovleva korporativ inklyuziv madaniyatni shakllantirish mexanizmlarini tahlil qiladi, ularning fikriga ko'ra, inson ehtiyojlari va qadriyatlari xilma-xilligini ta'minlaydigan muhitni yaratadigan chora-tadbirlar, proseduralar, dasturlar, qoidalar va harakatlar majmui bilan ta'minlanishiga xalaqit bermaydi, balki muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi. Ijtimoiy va ta'lim inklyuziya muammolariga bag'ishlangan psixologik-



pedagogik tadqiqotlarda inklyuziv madaniyatning tarkibiy tuzilmasini aniqlash va tavsiflashga harakat qilinadi. Stokgolm universiteti professori U.Janson madaniyatning uchta turini ajratib ko'rsatadi va ularni inklyuziv ta'limga kiritish muhim ahamiyatga ega:

1) o'rganish madaniyati, ya'ni sinfda o'zini tutish qoidalarini o'zlashtirish, o'qitish usullari va materialni o'zlashtirish xususiyatlari haqidagi bilimlar va boshqalar;

2) muassasada xulq-atvor me'yorlariga ega bo'lish, kattalar bilan muloqot qilish, bolalar bog'chasida yoki maktabda bolaga xos bo'lgan rollarni qabul qilishni nazarda tutadigan g'amxo'rlik madaniyati;

3) tengdoshlar madaniyati, ya'ni bolalar jamoasida ustunlik qiladigan odamlar guruhining tilini o'zlashtirish, tengdoshlar bilan muloqot qilish uchun zarur erkinlik va avtonomiyaning mavjudligi [5].

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni joriy etish – zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, har bir bolaning bilim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan. Mazkur maqolada inklyuziv ta'limning pedagogik va psixologik jihatlari tahlil qilinib, uning asosiy tamoyillari, metodologik yondashuvlari va samaradorlik omillari ko'rib chiqildi. Inklyuziv ta'lim – bu nafaqat nogironligi bor yoki maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun, balki barcha o'quvchilar uchun moslashtirilgan va inklyuziv muhitni shakllantirish jarayonidir. Ushbu tizimda asosiy e'tibor bola shaxsiyatini rivojlantirish, uning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va jamiyatga moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan. Ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish uchun pedagoglarning maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, o'qituvchilarni maxsus metodikalar, innovatsion yondashuvlar va psixologik tayyorgarlik bilan ta'minlash lozim. Inklyuziv ta'limning pedagogik asoslari shundan iboratki, o'quv jarayonida har bir bolaning individual ehtiyojlari inobatga olinishi kerak. Ta'lim berish metodlari shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, differensial yondashuv asosida tashkil etilishi lozim. Shu bilan birga, psixologik jihatdan inklyuziv ta'lim o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, psixo-emotsional holati va jamoa bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta'lim muhitida mehribonlik, tushunish, qo'llab-quvvatlash kabi qadriyatlarining ustuvor bo'lishi muhim. Maqolada ta'kidlanganidek, inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ota-onalar, pedagoglar, psixologlar va jamiyatning boshqa qatlamlari o'rtasidagi hamkorlik muhim rol o'ynaydi. Chunki faqatgina jamoaviy yondashuv orqaligina inklyuziv ta'limning samaradorligini oshirish va barcha bolalar uchun qulay o'quv muhitini yaratish mumkin. Shuningdek, inklyuziv ta'limni joriy etishda texnologik resurslar, innovatsion metodlar va ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Umumiy qilib aytganda, umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni joriy etish nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillarini ro'yobga chiqarish, balki har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga sharoit yaratish demakdir. Bunday ta'lim jarayoni pedagoglardan sabr, chidamlilik, ijodkorlik va innovatsion yondashuvni talab qiladi. Kelajakda inklyuziv ta'limning rivojlanishi ta'lim tizimining umuman



takomillashishiga, inson kapitalining oshishiga va jamiyatning yanada tolerant hamda adolatli bo'lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori. T.: 2020-yil. 13-oktyabr, PQ – 4860-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi. Xalq ta’limi vazirligi. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi: “Inklyuziv ta’limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish” (metodik tavsiya). Toshkent – 2022. 4-b.
3. “Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning echimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to’plami. “LessonPress” nashriyoti, Toshkent-2021.
4. Bruner J. S. Personality dynamics and the process of perceiving. In: R. R. Blake & G. V. Ramsey (eds.). Perception: an approach to personality. New York: Ronald, 1951, 121—147.
5. Sh. B. Goziyeva, “Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida inklyuziv madaniyat ko‘nikmalarini shakllantirish-ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida”. PEDAGOGY OF COOPERATION IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODERN APPROACHES International scientific-practical conference, November 13, 2023. 174-b.
<https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0012/S-32.pdf>